KONSALTING XIZMATLARINING RIVOJLANISH EVOLYUTSIYASI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI	692
Ermamatova Shoxsanam Ermamat qizi	
GLOBAL BRANDING VS. LOCAL BRANDING: STRATEGIC TRADE-OFFS IN INTERNATIONAL MARKETING	698
Aziz Kurbanovich Abdullaev	
Mamasolieva Kamila	
Akhmedova Zaynabkhon Khayrullo qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYA MUHITINI YAXSHILASH MEXANIZMLARI VA ULARNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI.....	706
Xatamov Nurbek Ochildiyevich	
TIJORAT BANKLARINING SAMARADORLIGIGA TA'SIR QILUVCHI MAKRO VA MIKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARNI EKONOMETRIK TAHLILI	711
Nabixo'jayeva Maxfuza Ulug'bekovna	
AGROKLASTERLARDA MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH JARAYONLARI AUDITINING AMALIYOTI.....	717
Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich	



AGROKLASTERLARDA MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LARNI SOTISH JARAYONLARI AUDITINING AMALIYOTI

Eshmuradov Ulug'bek Tashmuratovich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Buxgalteriya hisobi va audit kafedrası, i.f.f.d (PhD)

ORCID: 0009-0005-5325-9176

e-mail: ulugbek1983.05@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada agroklastarlarda mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditini tashkil etish va o'tkazish amaliyoti tahlil qilingan, sotish jarayonlari audit ketma-ketligi, u bo'yicha audit manbalari va obyektlari, xalqaro standartlarga muvofiq auditorlik dalillarini yig'ishning usullari va sotish jarayoni auditining amaliyotdagi bosqichlari ko'rsatilib, mahsulot (ish, xizmat)lar sotish jarayoni auditini o'tkazish jarayonida agroklastarlar buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlarni auditorlik tekshiruvi jarayonining yakuniy natijalarini aks ettirish bo'yicha ishchi jadval taklif etilgan.

Kalit so'zlar: agroklastarlarda mahsulot (ish, xizmat)lar, sotish jarayonlari audit, sotish jarayonlari audit ketma-ketligi, auditorlik dalillarini yig'ish usullari, sotish jarayoni audit bosqichlari, auditorlik tekshiruvi, ishchi jadval.

Аннотация. В данной статье проведён анализ практики организации и проведения аудита процессов реализации продукции (работ, услуг) в агрокластерах. Освещена последовательность проведения аудита процессов реализации, определены источники и объекты аудита в данном направлении, рассмотрены методы сбора аудиторских доказательств в соответствии с международными стандартами, а также раскрыты этапы проведения аудита процессов реализации на практике. Кроме того, предложена рабочая таблица для отражения итоговых результатов аудита данных, отражённых в бухгалтерском учёте агрокластеров, в ходе аудита процессов реализации продукции (работ, услуг).

Ключевые слова: продукция (работы, услуги) в агрокластерах, аудит процесса реализации, последовательность аудита процессов реализации, методы сбора аудиторских доказательств, этапы аудита процессов реализации, аудит, рабочая таблица.

Annotation. This article analyzes the practice of organizing and conducting audits of sales processes of products (works, services) in agroclusters, shows the sequence of sales process audits, sources and objects of audit in this regard, methods of collecting audit evidence in accordance with international standards, and stages of sales process audits in practice, and proposes a working table for reflecting the final results of the audit process of data reflected in the accounting of agroclusters during the audit of the sales process of products (works, services).

Keywords: products (works, services) in agroclusters, sales process audit, sequence of sales process audits, methods of collecting audit evidence, stages of sales process audits, audit audit, working table.

KIRISH

Agroklastarlarda tayyor mahsulotlarni sotish jarayoni agroklastar ichidagi ishlab chiqarish bo'linmalari o'rtasida mahsulot harakatini ta'minlash, ya'ni bir ishlab chiqarish bo'linmasidan boshqasiga berish yoki boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga sotishni o'z ichiga oladi.

Agroklastarlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari harakatini tahlil qiladigan bo'lsak, dastlab ular agroklasterga qarashli ishlab chiqarish bo'linmalarida ishlab chiqariladi yoki agroklasterga qarashli bo'lmagan qishloq xo'jaligi korxonalaridan sotib olinadi. Keyinchalik ushbu mahsulotlar saqlanadi, qayta ishlanadi va qayta ishlash natijasida tayyor mahsulot olinadi hamda yakuniy bosqichda sotiladi.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, agroklastarlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari auditini tashkil etishni auditning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish zarur.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Agroklastarlarda sotish jarayoni muhim jarayonlardan biri bo'lib, bu jarayonda hisobni to'g'ri tashkil etish va yuritish tayyor mahsulotlarni saqlash hamda sotish bosqichlarida nobudgarchilikning oldini olishga, ulardan maqsadga muvofiq foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Audit esa mazkur jarayonning buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etilishi va yuritilishini baholash hamda nazorat qilishni ta'minlaydi.

Fikrimizcha, sotish jarayonining auditi ko'p jihatdan butun audit tekshiruvining sifatini belgilovchi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Sotish jarayoni auditining asosiy maqsadi sotilgan tayyor mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning to'liq kirim qilinganligini, sotish baholari asosli ravishda belgilanganligini, shartnoma shartlariga rioya etilganligini, sotishdan olingan tushum hamda sotilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxining to'g'ri hisoblanganligini, shuningdek hisob-kitoblarning o'z vaqtida amalga oshirilganligini aniqlash va ular yuzasidan oqilona xulosa berishdan iborat.

Iqtisodiy terminlarning manbalarda [19] "tayyor mahsulot" (inglizcha: finished product)ga turlicha ta'riflar berilgan. Jumladan, iqtisodiy terminlar lug'atida "tayyor mahsulot — bu qonun bilan belgilangan texnik va sifat ko'rsatkichlari shartnoma shartlariga yoki boshqa hujjatlar talablariga javob beradigan, sotish uchun mo'ljallangan tovar-moddiy xaziralarning bir qismi (ishlab chiqarish siklining yakuniy natijasi, qayta ishlash bilan yakunlangan aktivlar)" deb ta'rif berilgan.

Iqtisodchi olimlar N.P. Kondrakov va T.D. Bursulayev tayyor mahsulotni quyidagicha ta'riflaydilar: "Tayyor mahsulotlar — bu to'liq qayta ishlangan, amaldagi standartlarga yoki texnik shartlarga mos keladigan hamda tashkilot yoki buyurtmachi (xaridor) omborida qabul qilingan buyumlar va yarim tayyor mahsulotlardir". Ushbu ta'rifda qishloq xo'jaligi mahsulotlari nuqtayi nazaridan qaralganda, barcha tayyor mahsulotlar to'liq qayta ishlangan bo'lishi shart emasligi, ya'ni ularning keyingi ishlab chiqarish bosqichlarida qayta ishlanishi mumkinligi e'tibordan chetda qolgan.

F.G'. G'ulomova ta'kidlashicha [17], "tayyor mahsulot — bu muayyan korxonada ishlov berilishi to'liq tugallangan, standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, texnika nazorati bo'limi tomonidan qabul qilingan hamda tayyor mahsulot omboriga topshirilgan mahsulot". Ushbu ta'rifda ham yuqorida qayd etilgan jihatlar yetarli darajada aks ettirilmagan.

N.T. Yuldasheva esa [18] "tayyor mahsulot"ni korxona tomonidan ishlab chiqarish jarayonlaridan to'liq o'tgan, omborga sotish maqsadida qabul qilingan va barcha talab hamda standartlarga javob beruvchi mahsulot sifatida izohlaydi. Biroq ushbu ta'rifda "javob beruvchi mahsulot" iborasi ma'lum darajada umumiy va aniqlashtirishni talab etadi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, "tayyor mahsulot — bu muayyan ishlab chiqarish jarayonida ishlov berish yakunlangan, standart talablari va texnik shartlarga javob beradigan, xaridorga yoki keyingi qayta ishlash bosqichiga yo'naltirilgan yoxud omborga topshirilgan buyum yoki yarim tayyor mahsulot" [7] sifatida ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuga oid respublikamizda qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotishni aks ettiruvchi statistik ma'lumotlar hamda ilmiy-tadqiqot natijalari materiallaridan foydalanildi.

Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda kuzatish, guruhlash, tahlil qilish va boshqa ilmiy usullardan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Agroklastarlarda sotish jarayonlarini auditorlik tekshiruvini o'tkazishda quyidagi tarmoq va ishlab chiqarish xususiyatlariga e'tibor qaratish lozim:

ko'pchilik mahsulotlarni sotish mavsumiy harakterga egaligi (meva, sabzavot, poliz, don va h.k.); mahsulotlarning bir qismi subyektning o'zini ehtiyojlari uchun sarflanishi (urug'lik, chorva mollariga ozuqa va h.k.);

mahsulotlarni sotishda yoki xaridorlarga yetkazib berishda alohida sharoitlar talab qilinishi (qadoqlangan, sovutilgan yoki h.k.);

mahsulotlarni xaridorlarga muntazam ravishda, bir maromda sotish mumkinligi (tuxum, sut va h.k.).

Ushbu yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar hisobga olingan holda mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditi o'tkaziladi. Shu bilan birga, auditorlik tekshiruvlarining samarasi bevosita uni tashkiliy ta'minotiga ham bog'liq. Auditning ushbu ta'minotining mazmun-mohiyati ilmiy adabiyotlarda atroflicha yoritilgan.

Biroq, ta'kidlash joizki, agroklastarlarda mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditi xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda bevosita o'tkaziladigan audit jarayoni o'quv va ilmiy adabiyotlarda maxsus yoritilmagan. Shu bois, agroklastarlar faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditiga to'xtalib o'tamiz.

Agroklastarlarda mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlarining auditorlik tekshiruvlarini tashkil etilishi va



uni o'tkazilishi bir necha ketma-ketlikda bajariladigan jarayonlardan iborat (1-jadval).


1-jadval.

Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditi ketma-ketligi¹

T.r	Jarayonlar ketma-ketligi	Bajariladigan ishlar
1.	Auditorlik tekshiruvini boshlashgacha bo'lgan jarayonda bajariladigan ishlar.	Auditor tomonidan sotish jarayoni hisobi va hisobotining dastlabki holatini o'rganish, audit obyektlari, ish hajmi va auditorlik xatari darajasini belgilash.
2.	Auditorlik tekshiruvini o'tkazish jarayonida bevosita bajariladigan ishlar.	Auditorlik xatarlarini hisobga olgan holda, tanlangan usullar orqali belgilangan muddatlarda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish.
3.	Auditorlik tekshiruvi natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bo'yicha bajariladigan ishlar.	Auditorlik tekshiruvi o'tkazish natijasida to'plangan dalillarni auditorlik hisobotiga kiritish va tegishli jadvallar tuzish.
4.	Auditorlik tekshiruvi natijalarini tadbiq etish bo'yicha bajariladigan ishlar	Barcha auditorlik dalillarini auditorlik hisobotiga kiritish, aniqlangan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar berish.

Agroklastarlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari auditini o'tkazish subyektda amalga oshirilayotgan auditorlik tekshiruvining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonning sifatli va ishonchli o'tkazilishi moliyaviy hisobotlar axborotining ishonchligini ta'minlashga hamda auditorlik tekshiruvlari umumiy sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari auditining manbalari va obyektlari turli xil bo'lib, ularni quyidagicha izohlash mumkin (1-rasm):



1-rasm. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish bo'yicha auditi manbalari va obyektlari

Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari auditida, avvalo, auditor tekshiruvni boshlashdan oldin sotish turlari va kanallari bilan tanishib chiqadi. Agroklastarlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari, asosan, xaridorlar va buyurtmachilarga erkin (ixtiyoriy) tarzda amalga oshiriladi.

Agroklastarlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish turlari davlat buyurtmasi bo'yicha va davlat buyurtmasidan tashqari sotishlarga bo'linadi. Amaliyotda sotish operatsiyalarining asosiy qismi davlat buyurtmasidan tashqari sotish turiga to'g'ri keladi.

¹ Muallif ishlanmasi



Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish kanallari quyidagilardan iborat:

- tayyorlov tashkilotlariga sotish;
- xaridorlar va buyurtmachilarga sotish;
- dehqon bozorlarida sotish;
- o'z ichki ehtiyojlari uchun foydalanish (ichki sotish);
- o'ziga tegishli savdo shoxobchalari orqali sotish;

mehnat haqi hisobidan sotish.

Xalqaro amaliyotda auditorlik dalillariga alohida ahamiyat qaratiladi. Mamlakatimizda ham auditorlik tekshiruvlarining samaradorligini oshirishda auditorlik dalillarini o'rinlilik, ishonchlilik va yetarlilik tamoyillari asosida to'plash muhim hisoblanadi. 500-son AXS — "Audit dalillari" (Audit Evidence) standartida auditorlik dalillari auditor tomonidan xulosa berishda foydalaniladigan axborotlar sifatida ta'riflanadi. Ushbu dalillar moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan buxgalteriya yozuvlari hamda boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Auditorlik dalillarini to'plash usullari turlicha bo'lib, ular vaziyatga qarab tanlanadi. Xalqaro standartlarga muvofiq [1], auditorlik dalillarini yig'ishning quyidagi asosiy usullari mavjud:

- tekshirish (inspection);
- kuzatish (observation);
- tashqi tasdiqlash (confirmation);
- qayta hisoblash (recalculation);
- qayta amalga oshirish (reperformance);
- rasmiy so'rov (inquiry);
- analitik tahlil (analytical procedures).

Audit usullari har bir xo'jalik hodisasining kelib chiqish sabablari, ularning oqibatlari hamda operatsiyalarning amaldagi qonun-qoidalarga muvofiqligini aniqlashga xizmat qiladi. Auditorlik faoliyatining rivojlanishi bilan uning uslubi va usullari ham takomillashib boradi.

Agroklasterlar faoliyatini asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyatga ajratish mumkin. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayonlari agroklasterning asosiy faoliyati hisoblanib, sotishdan olingan daromadlar asosiy faoliyat daromadlari tarkibiga kiradi. Shu bilan birga, uzoq muddatli va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan olingan daromadlar, undirilgan penya, qisqa muddatli ijaradan olingan daromadlar va boshqa operatsion daromadlar ham mavjud bo'lib, ular alohida daromad turlari sifatida e'tirof etiladi.

Tayyor mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish, sotilgan mahsulotlar tannarxi, xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar hamda umuman sotish jarayoni bilan bog'liq axborotlar quyidagi buxgalteriya schyotlarida [2] aks ettiriladi:

- 2010 — "Asosiy ishlab chiqarish";
- 2810 — "Ombordagi tayyor mahsulotlar";
- 4010 — "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";
- 5110 — "Hisob-kitob schyoti";
- 5210 — "Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari";
- 5220 — "Chet eldagi valyuta schyotlari";
- 6310 — "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar";
- 9010 — "Tayyor mahsulotni sotishdan daromadlar";
- 9030 — "Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan daromadlar";
- 9110 — "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi";
- 9130 — "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi";
- 9410 — "Sotish xarajatlari".

Auditor yuqoridagi schyotlarda aks ettirilgan sotish operatsiyalariga oid ma'lumotlarning ishonchliligini tekshiradi. Shu bilan birga, sotilgan tayyor mahsulot tannarxining 2010 — "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti ma'lumotlari asosida to'g'ri shakllantirilganligini baholaydi. Bunda quyidagilar tekshiriladi: mahsulot tannarxining iqtisodiy asoslanganligi, sotish xarajatlarining to'g'ri hisobga olinganligi, sotish operatsiyalari bo'yicha shartnomalarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, sotish baholarining obyektivligi, shartnoma shartlarining o'z vaqtida bajarilganligi hamda pul mablag'larining tegishli schyotlarga o'z vaqtida kelib tushganligi.

Umuman olganda, sotish jarayoni auditning amaliyotdagi holatini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu jarayonni shartli ravishda quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin: audit tekshiruviga tayyorgarlik ko'rish, audit tekshiruvini o'tkazish, audit natijalarini rasmiylashtirish hamda auditorlik tekshiruvining yakuniy bosqichlari (2-rasm).

2-rasm. Sotish jarayoni auditining amaliyotdagi bosqichlari²

Agroklasterlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish jarayoni auditini o'tkazish davomida subyekt buxgalteriya hisobida aks ettirilgan ma'lumotlar auditorlik tekshiruvining yakuniy natijalarini umumlashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, auditorlik tekshiruvining yakuniy natijalarini tizimli ravishda aks ettirish maqsadida quyidagi ko'rinishda ishchi jadvalni taklif etamiz (1-jadval).

1-jadval

“O'zbekim O'zbekiston-Germaniya” MCHJda chorvachilik mahsulotlari sotish jarayonini auditi natijalarini aks ettirish ishchi jadvali[15] mln. so'm hisobida

Ko'rsatkich nomi	Sotilgan mahsulot bo'yicha buxgalteriya hisobi ma'lumotlari			Sotilgan mahsulot bo'yicha audit natijalari			Farqi (+/-)		
	Daro-mad	Tan-narxi	Moliyaviy natija	Daro-mad	Tan-narxi	Moliyaviy natija	Daromad	Tan-narxi	Moliyaviy natija
Sut	2451,7	2245	206,7	2455,6	2245	210,6	3,9	0	3,9
Sariyog'	1642	1580	62	1640	1580	60	-2	0	-2
Kefir	835	741	94	835	741	94	0	0	0
Smetana	798	782,5	15,5	798	780,5	17,5	0	-2	2
Qaymoq	558	541,3	16,7	569	547,3	21,7	11	6	5
Pishloq	238	213	25	238	213	25	0	0	0
Tvorog	423	378,5	44,5	426	378,5	47,5	3	0	3
Brinza	125,6	101,7	23,9	145,6	121,7	23,9	20	20	0
Jami	7071	6583	488,3	7107,2	6607	500,2	35,9	24	11,9

Tahlil ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki (1-jadvalga qarang), chorvachilik mahsulotlarini sotish jarayoniga oid ko'rsatkichlarda daromadlar bo'yicha 35,9 mln so'mga, sotilgan mahsulot tannarxi bo'yicha 24,0 mln so'mga hamda moliyaviy natijalar bo'yicha 11,9 mln so'mga farq aniqlangan.

Jiddiylik nuqtayi nazaridan ushbu farqlar mos ravishda 0,5 foiz, 0,4 foiz va 2,4 foizni tashkil etadi. Auditorlik tekshiruvini rejalashtirish jarayonida barcha ko'rsatkichlar uchun jiddiylik darajasi 3 foiz etib belgilanganligini inobatga olsak, aniqlangan farqlar jiddiy xato sifatida baholanmaydi hamda auditorlik xulosasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Buxgalteriya hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritishda auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish muhim ahamiyat kasb etadi. Auditorlik tekshiruvi, bir tomondan, tekshirilayotgan obyektning holati, saqlanishi va undan maqsadga muvofiq foydalanilishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, buxgalteriya hisobining to'g'ri yuritilishini nazorat qilish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, mahsulot (ish, xizmat)larni sotish jarayonlari auditi mahsulotlarni daromadga olish bosqichidan boshlab, ularni sotish va boshqa hisobdan chiqarish jarayonlarida nobudgarchilikning oldini olish, ularning to'liq saqlanishi hamda maqsadga muvofiq sarflanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Auditning xalqaro standarti 500 **"Auditorlik dalillari"**. – URL: https://api.mf.uz/media/menu_attachments/2_Epfxm0c.pdf
2. O'zbekiston Respublikasi 21-son BHMS **"Xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma"**. – 2024-yil 14-noyabr, 191-son. – URL: <https://lex.uz>
3. Abdunazarova S., Aliqulova Z., Eshmuradov U. B. (2024). Agroklastarlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish // **Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot**, 2(1).
4. Alikulov A., Eshmuradov U., Abdushukurov K. (2024). Improving Cost Accounting for Sales of Agricultural Products in Farms // **Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot**, 2(1).
5. Abdunazarova S., Aliqulova Z., Eshmuradov U. B. (2024). Agroklastarlarda biznes jarayonlari sotish hisobini takomillashtirish // **Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot**, 2(1).
6. Бурсулая Т. Д. Учет выпуска готовой продукции. – URL: <https://www.audit-it.ru/articles/account/assets/a11/1017103/>
7. Eshmuradov U. T. (2025). Agroklastarlarda sotish jarayoni hisobi va auditini takomillashtirish: iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: "Public Publish Printing" MChJ, 59 b.
8. Eshmuradov U. B. (2025). Agroklastarlarda ichki sotish jarayonida transfert baholarni belgilash usullarini takomillashtirish // **Muhandislik va iqtisodiyot**, 3(12).
9. Eshmuradov U. B. (2023). Sotish jarayonlari hisobini buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari asosida takomillashtirish // **Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot**, 1(11–12).
10. Eshmuradov U. B. (2024). Agroklastarlar ichki sotish jarayonida transfert baholarni belgilashning tashkiliy-uslubiy jihatlari // **Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot**, 2(1).
11. Кондраков Н. П. Самоучитель по бухгалтерскому учету. – 7-е изд., перераб. и доп. – М.: Проспект, 2021. – 608 с.
12. Tashmuratovich E. U. (2023). Improvement accounting of process realization in farm enterprises // **Journal of Veterinary Science**, 6(5), 20–28.
13. Tashmuratovich E. U. B., Xaitovich Y. S. (2024). G'allachilik klasterlarida transfert baho belgilash usullari tahlili // **Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting**, 4(01), 133–141.
14. Tashmuratovich E. U. (2023). Accounting and audit improvement of ready sale products in agrocluster // **The Journal of Economics, Finance and Innovation**, 649–657.
15. Tashmuratovich E. U. B. (2026). Agroklastarlar boshqaruv va moliyaviy hisobida mahsulot (ish, xizmat) lar sotish jarayoni hisobini takomillashtirish // **Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting**, 6(01), 89–96.
16. Ulugbek T. E., Abdimumin I. A. (2014). Improvement Accounting of Sales Agricultural Products on Farm Enterprises // **SEA – Practical Application of Science**, (5), 649–654.
17. Фуломова Ф. Ф. Бухгалтерия ҳисобини мустақил ўрганувчилар учун қўлланма. – 2-қайта ишланган ва қўшимчалар киритилган нашр. – Т.: "NORMA" МЧЖ, 2009. – 496 б.
18. Юлдашева Н. Т. Тайёр маҳсулот сотилиши ҳисобини янада такомиллаштириш йўллари // **Таълим фидойилари**. Электрон журнал. – 2022. – Vol. 1. – ISSN: 2180-2130.
19. Экономические термины. Готовая продукция. – URL: https://ru.wikipedia.org/wiki/готовая_продукция
20. Samarqand viloyatidagi **"O'zbekim O'zbekiston–Germaniya"** MChJ hisobot ma'lumotlari.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>